

TOVAR, ISH VA XIZMATLARNI XARID QILISHNI REJALASHTIRISH HAMDA LOTLARNI JOYLASHTIRISH MASALALARI

Usmonov Shavkatjon Shukurovich

Jamoat xavfsizligi universiteti,

“Iqtisodiy fanlar” kafedrasida katta o‘qituvchisi

E-mail: shavkatjonusmonov3007@gmail.com

ANNOTASIYA

Maqolada tovarlar, ishlar va xizmatlar xarid qilishni rejalashtirish uchun Buyurtmachi xaridlar rejasini ishlab chiqish, xarid qilish uchun har choraklik, yillik yoki bir martalik buyurtmaning tarkibiy bo‘linmalari tomonidan xarid qilish zarurligini asoslab tuzish masalalari yoritilgan. Turli tovarlar, ishlar va xizmatlarni elektron xarid qilish jarayonida lotlarini joylashtirish shartlari o‘rganilgan. Lotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish va sotib olish dasturlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: davlat xaridlari, tovarlar, ishlar va xizmatlar, buyurtma topshirish, lotlarini joylashtirish, yagona yetkazib beruvchilar reestri, shartnoma.

ВОПРОСЫ ПЛАНИРОВАНИЯ ЗАКУПОК ТОВАРОВ, РАБОТ И УСЛУГ И РАЗМЕЩЕНИЯ ЛОТОВ

АННОТАЦИЯ

В статье освещаются вопросы разработки плана закупок заказчиком для планирования закупок товаров, работ и услуг, обоснования необходимости закупок структурными подразделениями ежеквартального, годового или разового заказа на закупку. Изучены условия размещения лотов различных товаров, работ и услуг в процессе электронных закупок. Раскрыты программы регистрации и выкупа лотов.

Ключевые слова: государственные закупки, товары, работы и услуги, размещение заказов, размещение лотов, Единый реестр поставщиков, договор.

ISSUES OF PLANNING THE PURCHASE OF GOODS, WORKS AND SERVICES AND THE PLACEMENT OF LOTS

ANNOTATION

The article covers the issues of developing an Customer procurement plan for planning the procurement of goods, works and services, establishing on the basis of the need for procurement by the structural units of each quarterly, annual or one-time order for procurement. The conditions for the placement of lots in the process of electronic

procurement of various goods, works and services are studied. Lot registration and purchase programs are revealed.

Keywords: public procurement, goods, works and services, placing orders, placing lots, register of single suppliers, contract.

Har bir tashkilot, muassasa o‘z ehtiyojarinin ta‘milash maqsadida ichki buyruq (farmoyish)lari bilan hisobot yil uchun – tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotib olish zarurligini aniqlash va asoslash, buyurtmalarni shakllantirish va ma‘qullash yoli bilan rejalashtirish ishlarini tartibga soladi va unga ko‘ra [1] amalga oshiradi.

Tovarlar, ishlar va xizmatlar xarid qilishni rejalashtirish uchun **Buyurtmachi** (tovar, ish, xizmatxaridiga mas‘ul) korxonada belgilangan shaklga muvofiq xaridlar rejasini ishlab chiqadi. Xaridlar rejasini keyingi chorak, yil uchun Buyurtmachi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish uchun har choraklik, yillik yoki bir martalik buyurtma, buyurtmaning tarkibiy bo‘linmalari tomonidan xarid qilish zarurligini asoslab tuziladi. Bunda buyurtma bergan mansabdor shaxs yoki bo‘lim (xizmat, bo‘linma) to‘liq asoslarni keltiradi va zaruriyatini yoritib beradi.

Tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish rejasiga quyidagi holatlarda o‘zgartirishlar kiritiladi:

- moliyalashtirish miqdori o‘zgartirilsa;
- tovarlar, ishlar va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoj o‘zgarsa;
- fors-major holatlarida.

Tasdiqlangan texnik topshiriq va bosh mutaxassislar xizmati bilan kelishilgan nuqsonli dalolatnoma - tovarlar, ishlar va xizmatlarga bo‘lgan joriy talab yoki favqulodda ehtiyoj buyurtmaga ilova qilinishi kerak bo‘ladi.

Qurilish-montaj ishlarida tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish uchun buyurtmaga loyiha-smeta hujjatlari ilova qilinishi lozim.

Agar tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish, choraklik yoki yillik talabnomada ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, tashabbuskor ushbu tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish to‘g‘risida bildirgi yoki xizmat xati taqdim etadi.

Korxonada boshlig‘i tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish to‘g‘risida buyurtma kelib tushgan kundan boshlab, bir ish kuni ichida ijrochini aniqlaydi va **ijrochi** belgilangan muddat ichida quyidagi xarakatlarni bajaradi:

- xarid to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha, tanlashsiz, tendersiz amalga oshiriladigan tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish Ro‘yatiga kirish-kirishligini aniqlaydi;

- internet, ommaviy axborot vositalari orqali potensial yetkazib beruvchilardan tijorat takliflarinin so‘rab, mavjud bozorni tahlil qiladi [2] (marketing tadqiqotlarini o‘tkazadi), shu jumladan sotib olinadigan mahsulotlarining bozor narxlarini kuzatadi;

- xarid qilinadigan tovarlar, ishlar va xizmatlar ro'yxatini tuzishda, ularni cooperation.uz portalida ro'yxatdan o'tgan mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilish imkoniyatini o'rganishlari kerak:

a) mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilish imkoniyati bo'lmagan taqdirda (texnik parametrlar, xajmlar va ishlab chiqarish vaqtlari bo'yicha) kuzatuv kengashlariga import uchun tovarlar, ishlar va xizmatlarni korporativ xarid qilish maqsadga muvofiqligini asoslash;

b) xarid qilinadigan tovarlar, ishlar va xizmatlarning bitta shartnoma summasi bazaviy hisoblash miqdorining 25 ming baravarigacha bo'lsa, uning shartnomasi va texnik topshiriqlari uchun O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi “Loyihalar va import shartnomalari kompleks ekspertiza markazi”[3] davlat unitar korxonasi xulosa olinishi kerak.

- kerakli naqsulot assortimenti uchun yetkazib beruvchilar o'rtasida raqobat muhitining mavjudligini, shuningdek shartnomaning boshlang'ich (maksimal) narxini aniqlaydi;

- tashabbuskorning ma'lumotlariga aniqlik kiritib keying bosqichda bajariladigan ishlarga kirishadi;

- to'plangan ma'lumotlarni korxonaga boshlig'iga ushbu usuldan foydalanish mumkin bo'lgan foyda, jami xarajatlar va uni amalga oshirish muddatidan kelib chiqib, xarid qilish usulini aniqlash uchun taqdim etadi;

- tashabbuskor tovarlar, ishlar va xizmatlarni xaridi uchun tegishli e'lonlarni ommaviy axborot vositalari orqali yoki rasmiy veb-saytda joylashtirish orqali xarid qilish bo'yicha takliflar yuboradi.

Turli tovarlar, ishlar va xizmatlarni elektron xarid qilish jarayonida lotlarini quyidagi xarid qilishni yengillashtiradigan platformalarga joylashtiradi:

- xarid.uzex.uz (<https://xarid.uzex.uz/>);

- xt-xarid.uz (<https://xt-xarid.uz/>);

- e-auksion.uz (<https://e-auksion.uz/>);

- xarid.uz (<http://xarid.uz/>).

Lotlarni joylashtirishda xatoliklarga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Avvalo Lot tushunchasini yoritib.

Savdolar o'tkaziladigan oldi-sotdi auksionlarining asosiy birligi lot hisoblanadi. Ko'p inventar buyumlar, xizmatlar yoki ishlarni har qanday miqdorda va har qanday kombinatsiyada ifodalashi mumkin. Davlat xaridlarida lotlar odatda xarid buyumlari deb ataladi.

Lot – turli belgilari bo'yicha guruxlashtirilgan (foydalanish, texnik va funksional xususiyatlariga ko'ra) bir hil turdagi tovarlarning jamlanmasi sifatida buyurtmachi tomonidan belgilangan va alohida shartnoma bo'yicha xarid predmetining miqdoriy qismi[4].

Lot - auksion va fond birjalarida savdolar paytida sotib olish va sotish birligi. Partiya hajmi jismoniy jihatdan oldindan belgilangan tovarlar hajmiga mos keladi. Savdo paytida tuzilgan bitim yoki shartnomaning standart hajmi auksion va birja savdolari qoidalari bilan belgilanadi[5].

Kim oshdi savdosi paytida sotuvga qo'yilgan lot bir yoki bir nechta o'xshash sifatdagi buyumlar, buyumlar yoki to'plamlardan iborat bo'ladi. Har bir auksion lotiga tartib raqami beriladi va kim oshdi savdosi davomida o'zining auksion narxi belgilanadi.

Birjada lot so'ziga qo'llanilganda to'liq lot, qisman lot, quyma lot, oldindan qadoqlangan lot kabi atamalar qo'llaniladi.

To'liq lot (dumaloq lot) - 10, 100, 500 yoki boshqa miqdordagi qimmatli qog'ozlar paketi.

To'liq bo'lmagan lot (nostandart lot, dumaloq bo'lmagan lot, Toq lot, Buzilgan lot) - to'liq lotga qaraganda kamroq miqdordagi qimmatli qog'ozlarni o'z ichiga olgan paket.

Buzilgan lot - bu lotga kiritilgan ma'lum bir nomdagi aksiyalarning belgilangan (eng kichik) soniga qarab belgilanadigan kasr lot.

Kengash loti - ularning nominaliga qarab qimmatli qog'ozlar soni bilan belgilanadigan lot .

2022 yil 1 yanvardan e'tiboran davlat xaridlari bo'yicha shartnomalar reestrda lot raqamlarining shakllanishi quyidagicha belgilangan[6].



Bu yerda

- YY – Moliya yilining oxirgi ikkita raqami;
- P - Davlat xaridlari bo'yicha operatorlar;
- T - Buyurtmachining mansubligi;
- K - Raqobat muhiti yaratilgan savdo turlari (yoki aksincha) uchun;
- CCC - xarid turi yoki asos
- XXXXXX - tartib raqami.

CCC - xarid turlari (yoki asos):

YY P T K 001- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, farmonlari va farmoyishlari (PQ-3953 bundan mustasno);

YY P T K 003- Hukumat qarorlari (Prezident qarorlari bundan mustasno);

YY P T K 004- Milliy do'kon;

YY P T K 005- Tanlov (tanlash);

YY P T K 006- Tender;

YY P T K 007- Auksion;

YY P T K 008- Elektron do‘kon (bozor).

Misol uchun:

- 231100101198619 – 2023 yil (23), etender.uzex.uz davlat xaridi bo‘yicha operatorlarda (1), Namangan tuman tibbiyot birlashmasi budget tashkiloti (1), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga asosan (001) elektr energiyasi uchun savdo raqami (1198619).

- 242010063138878 – 2024 yil (24), <https://xt.xarid.uz> davlat xaridi bo‘yicha operatorlarda (2), Navoiy TMK korporativ tashkiloti (0), tender orqali (006) extiyot qismlar uchun tender raqami (3138878) va h.k.

Lotni joylash bosqichma bosqich olib boriladi:

- Kalit so‘zini kiritiladi va va kerakli mahsulot (tovar, xizmat) tanlanadi;
- Elektron (milliy) do‘konda taklif joylanadi (tovar toifasi, miqdori, sifati, markasi, narxi va boshqa qo‘shimcha shartlari);
- yetkazib berish muddatlari va h.k.

Lot joylashtirilgach, moderatsiya muddati 48 soatni tashkil etadi.

Lot moderatsiyadan rad etilgan taqdirda taklif qiluvchining shaxsiy kabinetida «MENING LOTLARIM» bo‘limida «Moderator tomonidan rad etilgan» yozuvi paydo bo‘ladi. Ko‘rsatilgan kamchiliklar tuzatilishi bilan lotni qayta moderatsiyaga yuborish mumkin.

Moderatsiya muvaffaqiyatli yakunlangandan keyin, 3,15% pul mablag‘i (garov va vositachilik to‘lovi)ni belgilangan hisobraqamga o‘tkaziladi. Ishtirokchining elektron do‘konga joylagan tovar (ish, xizmat) lari 15 ish kuni davomida faol hisoblanadi. Ushbu muddat tugagandan keyin ishtirokchi uni yana 15 ish kuniga faollashtirishga haqli.

Narx so‘rash mexanizmi ishga tushgandan so‘ng, yetkazib beruvchi 48 soat ichida narxni yangilash tugmasi orqali bir marta narxni pasaytirish huquqiga ega.

Qabul qilingan takliflar bo‘limida davlat buyurtmachisi tomonidan tanlangan ishtirokchi tovar (ish,xizmat)lari bo‘yicha narx taklifini oladi va bir vaqtning o‘zida shu toifadagi tovar (ish, xizmat)lar joylagan ishtirokchilarga ham narx taklifi yuboriladi. Xarid qilish tartib-taomilida ishtirok etish taklifini olgan ishtirokchilar davlat buyurtmachisi tanlangan taklif narxidan pastroq narx taklifini berishga haqli¹.

Lotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish va sotib olish dasturlari.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, "lot" ehtiyojlarni aniqlashni qayta ishlashda yaratilgan va savdoga tayyorgarlik jarayonida qo‘shimcha ravishda kelishib olinishi va qayta rasmiylashtirilishi kerak bo‘lgan hujjat hisoblanadi. Lotni yakuniy ishlab chiqishning ushbu jarayoni quyidagilardan iborat:

¹ Moliya: Davlat xaridlari. Darslik. "Lesson Press" MCHJ nashriyoti – T.: 2024. 158 b

1.Yetkazib beruvchini tanlash usuli ko‘rsatiladi (kotirovka so‘rovi, kim oshdi savdosi, tanlov va boshqalar).

2.Sotib olish tafsilotlarini ko‘rsatiladi (yetkazib beruvchilar ro‘yxatidan yopiq sotib olish, elektron shaklda sotib olish va h.k.).

3.Savdolarning boshlang‘ich maksimal narxi ko‘rsatiladi (yoki uni "boshlang‘ich (maksimal) lot narxi").

4.Yetkazib berish joyi ko‘rsatiladi (tovar etkazib berilishi kerak yoki uni olish mumkin bo‘lgan joy).

5.Shartnoma predmetini, yetkazib beruvchiga/yetkazib berishga qo‘yiladigan umumiy talablarni, etkazib berish shartlarini, ishlash jadvalini, faoliyat kodlarini va boshqalarni ko‘rsatiladi.

6.Xaridlarni boshlanish sanalari, savdolar boshlanishining rasmiy e‘lon qilinishi, tuzilgan shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarish va boshqalar.

Shundan so‘ng, lot manfaatdor tomonlarga tasdiqlash uchun yuboriladi.

Yuqorida tavsiflangan lotni to‘ldirish (narxlarni belgilash, sotib olish shartlari va boshqalar) lotni muvofiqlashtirish jarayonida amalga oshirilishi mumkin.

Lotning keyingi taqdiri sotib olish tashkilotchisi sifatida ishlaydigan tashkilot turi bilan belgilanadi. Lot yillik sotib olish rejasiga kiritiladi va saytda joylashtiriladi.

Dastur tomonidan quyidagi ish oqimining umumiy sxemasi keltirilgan:

1.Lot mos keladi.

2.Lot kelishilgandan so‘ng, u yillik sotib olish dasturiga kiritilgan.

3.Shundan so‘ng, agar xaridlar elektron savdo tizimi orqali amalga oshirilsa, lot savdo maydonchasi veb-saytiga o‘tkaziladi.

4.Agar lot elektron savdo maydonchasida joylashtirilmasa, u holda tashkilot potensial etkazib beruvchilarni kelgusi savdolar to‘g‘risida u yoki bu tarzda xabardor qiladi.

5.Sotuvchilar dasturga ro‘yxatdan o‘tgan tijorat takliflarini lotga bog‘langan holda yuboradilar.

6.Savdolar yakunlangandan so‘ng yetkazib beruvchilarning takliflari baholanadi va g‘olib tanlanadi, xarid komissiyasi tomonidan g‘olibni tanlash bayonnomasi rasmiylashtiriladi.

7.Shartnoma kelishib olinadi va g‘olib bilan tuziladi.

8.Shartnoma asosida etkazib beruvchiga buyurtmalar beriladi, keyin tovarlar va xizmatlarning tushumlari rasmiylashtiriladi, to‘lov uchun arizalar rasmiylashtiriladi.

Elektron savdo maydonchalari orqali amalga oshiriladigan savdolar uchun 4-6-bandlarni o‘tkazib yuborish mumkin, chunki savdolar tugagandan so‘ng g‘olibni tanlash uchun tayyor bayonnomasi dasturga yuklanadi.

Eng yaxshi taklifni tanlashda bir nechta mezonlarga amal qilinadi, masalan:

1.Narxi,

2. Kechiktirish muddati,
3. Yetkazib berish shartlari.
4. shuningdek -material markasi, ishlab chiqaruvchi va boshqalar.

Yetkazib beruvchining taklifiga nisbatan xolisona munosabatdan uzoqlashish uchun dastur hujjatlarni tahlil qiladigan va o‘zi baholaydigan berilgan dasturiy ta‘minot algoritmi asosida baholash variantini taqdim etadi. Bunday algoritmi sifatida, masalan, dastur ma‘lumotlar bazasiga so‘rov berilishi mumkin, u o‘zi ushbu lot uchun yetkazib beruvchilarning barcha ro‘yxatdan o‘tgan takliflarini ko‘rib chiqadi, ularning narxini tekshiradi va takliflarning qaysi biri eng foydali ekanligini baholaydi.

Shundan so‘ng **buyurtmachi** tomonidan tasdiqlangan tegishli shartnomaning standart shakli asosida tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish bo‘yicha shartnoma loyihasini tayyorlaydi va tasdiqlaydi. Bunda:

- mavjud baholash mezonlari bo‘yicha tijorat taklifini o‘rganish natijalariga ko‘ra xarid komissiyasi qarorini tuzadi. Shu bilan birga, eng yaxshi da‘vogarlarni aniqlash maqsadida g‘olibdan mahsulot sifati bo‘yicha, xarid komissiyasiga qo‘shimcha ravishda ekspert xulosasi so‘ralishi mumkin;

- yagona yetkazib beruvchilar reestriga kiritilgan yagona yetkazib beruvchilar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar tuzadi;

- korxonaga boshlig‘i bilan kelishilgan holda uzex.uz platformasi birja savdolari orqali yuqori likvidli tovarlarni xarid qiladi;

- boshliq bilan kelishilgan holda korporativ xaridlar platformasi (elektron do‘kon) orqali tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qiladi;

- to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha ham, birja shartnomasi bo‘yicha ham tovarlar, ishlar va xizmatlar xarid qilish uchun yetkazib beruvchilar bilan muzokaralarga kirishadi.

Tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilishni tartibga soluvchi qonun hujjatlari va eng yaxshi taklifni tanlashda, birja savdosi qoidalarini, boshlang‘ich narxni pasaytirish tamoyillari bo‘yicha auksionni, shuningdek, budget buyurtmachisi tomonidan tasdiqlangan shartnomalarning standart shakllarini qo‘llaydi va amal qilishadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, tovarlar, ishlar va xizmatlar xarid qilishni rejalashtirish, xarid qilish uchun har choraklik, yillik yoki bir martalik buyurtma, buyurtmaning tarkibiy bo‘linmalari tomonidan xarid qilish zarurligini asoslab tuzishi darkor. Bunda buyurtma bergan mansabdor shaxs yoki bo‘lim (xizmat, bo‘linma) to‘liq asoslarni keltiradi va zaruriyatini yoritib beradi.

Davlat xaridlarini yanada takomillashtirish, uning imkoniyatlarini kengaytirish, ochiqlik va oshkorlikni ta‘minlash borasida Davlat xaridlarini amalga oshirishda mas‘ul xodim (bo‘lim) lavozimini alohida shtat birlik (bo‘linma) tuzish hamda unga xarid qilish bilan bog‘liq barcha majbutiyatlarni yuklash maqsadga muvofiqdir. Uning

bajargan ishlarini doimiy korxonaga raqbariga buyrunuvchi ichki audit guruhi nazoratidan davriy ravishda o‘tkazib turmoq lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Беляева О.А. Корпоративные закупки: проблемы правового регулирования: научно-практическое пособие. – Институт законодательства и сравнительного правоведения при Правительстве Российской Федерации; ИД "Юриспруденция", 2018 г.

2. Положение о закупке товаров, работ, услуг для собственных нужд муниципального автономного учреждения «информационно-методический центр» города Тюмени. Г.Тюмень 2023.

3. O‘roqov U.Yu., Shadmanov E.Sh., Bababekova D.Sh. Davlat xaridari. O‘quv qo‘llanma. – T.: JXU, 2022. – 208 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 21 mayda 3015 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Maxsus axborot portali operatorining davlat xaridlarini tashkil etish hamda o‘tkazish borasidagi faoliyati to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Nizom.

5. Usmonov Shavkatjon Shukurovich. (2024). Davlat xaridlari mexanizmini takomillashtirish va uning davlatimiz iqtisodiyotida tutgan o‘rni. Journal of New Century Innovations, 61(2), 169-178. b.

6. U.Yu.O‘roqov, E.Sh.Shadmanov, D.Sh.Bababekova. Davlat xaridlarini boshqarish. O‘quv qo‘llanma. T. - O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti: 2022. 214 b.